

JINOYAT PROTSSESSIDA XALQ VAKILLARI HAY'ATI INSTITUTINI JORIY ETISHNING AHAMIYATI**Boymurodov Zokirjon Anvar o'g'li****<https://doi.org/10.5281/zenodo.18601328>**

Annotatsiya. Mazkur maqolada sud protsessida xalq vakillari hay'ati institutini joriy etishning nazariy-huquqiy va tashkiliy asoslari tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi sud-huquq tizimi va jinoyat-protsessual qonunchiligi o'rganilib, unda xalq vakillari hay'ati instituti mavjud emasligi hamda fuqarolarning sudlovni amalga oshirishdagi ishtiroki cheklanganligi asoslab beriladi. Ingliz huquqi tizimidagi xalq vakillari hay'ati instituti, uning protsessual mexanizmlari va sud amaliyotidagi o'rni ilmiy va qiyosiy tahlil qilinib, milliy qonunchilikka mazkur institutni joriy etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: xalq vakillari hay'ati, sud mustaqilligi, oshkoralik, jinoyat protsessi, jamoatchilik ishtiroki.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретико-правовые и организационные основы внедрения института коллегии народных представителей (присяжных заседателей) в судебном процессе. Изучаются действующая судебная правовая система и уголовно-процессуальное законодательство Республики Узбекистан, обосновывается отсутствие института коллегии народных представителей, а также ограниченность участия граждан в осуществлении правосудия. Институт коллегии народных представителей в системе английского права, его процессуальные механизмы и роль в судебной практике рассматриваются на основе научного и сравнительно-правового анализа, а также разрабатываются практические предложения по внедрению данного института в национальное законодательство.

Ключевые слова: коллегия народных представителей (присяжные заседатели), независимость суда, гласность, уголовный процесс, участие общественности.

Abstract. This article analyzes the theoretical, legal, and organizational foundations for introducing the institution of the jury (people's representatives) in judicial proceedings. The current judicial system and criminal procedural legislation of the Republic of Uzbekistan are examined, substantiating the absence of the jury institution and the limited participation of citizens in the administration of justice. The jury institution within the English legal system, its procedural mechanisms, and its role in judicial practice are analyzed through scientific and comparative legal methods, and practical proposals for introducing this institution into national legislation are developed.

Keywords: jury, judicial independence, transparency, criminal procedure, public participation.

KIRISH.

Sud hokimiyatining mustaqilligi va adolatli sudlovni ta'minlash demokratik huquqiy, ijtimoiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Zamonaviy sud-huquq islohotlarida sud jarayonlarining ochiqligi, xolisligi va jamiyat ishonchini mustahkamlash masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqsadlarga erishishda sud protsessida fuqarolarning bevosita ishtirokini ta'minlovchi institutlar muhim o'rin tutadi. Shunday institutlardan biri — xalq vakillari hay'ati instituti hisoblanadi. Mazkur institut sudlovni faqat professional sudyalardan emas, balki jamiyat vakillari ishtirokida amalga oshirilishini nazarda tutadi. Bu esa sud qarorlarining legitimligi va ishonchliligini oshiradi.

Muhtaram Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyevning 2025-yilning 26-dekabr sanasida Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida "endi jinoyat protsessiga ingliz huquqidagi davlatlarda ijobiy natija bergan *"xalq vakillari hay'ati"* instituti bosqichma-bosqich joriy etiladi. Bunda o'ta og'ir va jamiyatda shov-shuvga sabab bo'layotgan jinoyatlar jamoatchilik vakillari ishtirokida ko'rib chiqilishi sud hukmining yanada adolatli bo'lishiga xizmat qiladi"¹ deya ta'kidlashlari ham mazkur institutning sud-huquq tizimi uchun nechog'lik muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda xalq vakillari hay'ati sudlov instituti mavjud emas. Shu sababli mazkur institutni joriy etishning ilmiy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasining sud-huquq tizimi asosan fuqaro va jinoyat ishlari bo'yicha professional sudyalar bilan hal etilmoqda. Sud protsesslarida xalq vakillari hay'ati tizimi yo'q bo'lib, uning o'rniga har bir jinoyat ishida sudya bilan birga ikki nafar xalq maslahatchisi ishtirok etadi. Xalq maslahatchilari O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 59-moddasiga asosan, o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, fuqarolarning yashash yoki ish joyidagi yig'ilishida ochiq ovoz berish yo'li bilan ikki yarim yil muddatga saylangan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi xalq maslahatchisi bo'lishi mumkin².

Lekin amaliyotda xalq maslahatchilari ko'pincha nafaqa yoshidagi yoki faoliyat yuritmaydigan fuqarolar orasidan tavsiya qilinib, tayinlanadi. Bunday maslahatchilarning sud majlisiga kechikishi yoki kela olmasligi boshqa ishtirokchilarning kutib qolishiga olib keladi.

Qonunchilik bo'yicha maslahatchilar ham sudyaning barcha huquqlaridan foydalansa-da, ularning vazifasini ado etmaslik holatlari uchun jazo mexanizmi ko'zda tutilmagan. Natijada sud ishlarida doimiy qatnashadigan xalq maslahatchilari tayinlanib, ularning ishi to'xtovsiz davom etib borishi ta'minlanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida hozirgi kunga qadar, sud protsessiga xalq vakillari hay'ati instituti joriy etilmagan. Jinoyat protsessidagi me'yorlarga ko'ra, aynan sudyalar va xalq maslahatchilari birgalikda ish yuritadilar. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, sud majlisida professional sudya bilan birga ikkita xalq maslahatchisi qatnashadi va ular sud qaroriga teng hissa qo'shadi. Maslahatchilar amaldagi "Sudlar to'g'risida" qonunga asosan saylanadi va ular joylardagi kengash yoki muassasalar aholisining ochiq saylovlari orqali aniqlanadi.

Ammo mazkur tizimda bir qator muammolar ham mavjud bo'lib, avvalo, qonunchilikda xalq maslahatchilarining majburiyati uchun kuchli javobgarlik mexanizmi mavjud emas. Masalan, amaldagi qonunchilik bo'yicha maslahatchilardan birining sud majlisiga sababsiz kelmasligi yoki kechikishi uchun hech qanday jazo nazarda tutilmagan. Buning oqibatida, muassasa yoki tashkilot tomonidan tavsiya qilingan maslahatchi kelmaganda, uning o'rniga zaxiradagi maslahatchi olib kelinib, sud majlisini yangidan boshlashga to'g'ri keladi. Bu esa sud majlisida yig'ilganlarga ortiqcha noqulaylik tug'diradi. Qolaversa, maslahatchilarni ko'pincha pensiyaga chiqqan yoki boshqa ish bilan band bo'lmagan shaxslar orasidan tanlashadi.

Bu kabi holatlar O'zbekiston Respublikasining sud-huquq tizimida vakillik hay'ati instituti tizimini joriy qilish zaruratini ko'rsatadi. Hozircha xalq vakillari o'rnini bosuvchi xalq maslahatchilari orqali jamoat ishtiroki qisman ta'minlanib kelinmoqda, lekin ularning tanlanish

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 26.12.2025

² O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni, 59-moddasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y.

mexanizmi va sud jarayonidagi roli jiddiy takomillashuvni talab qiladi. Amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan sud-huquq islohotlari doirasida bu masala jiddiy ko'rib chiqilayotgani ta'kidlanmoqda.

Bunda xalq vakillari hay'ati institutini joriy etishning bir qator afzalliklari mavjud bo'lib, quyidagilarda o'z aksini topadi:

- *Jamoatchilik qadriyatlarini sudlovga ta'sir ettirish.*

Vakillik hay'ati majlisi sudda qatnashayotgan jamoatchilikni bevosita ifodalaydi va fuqarolar munosabatlarini sud qarorlarida aks ettirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham "xalq hokimiyatning yagona manbai" deb e'tirof etilganligini hisobga olsak, fuqarolarning sud protsessiga jalb qilinishi demokratik huquqiy tizim tamoyiliga mos keladi.

- *Adolatli va xolis qaror qabul qilish.*

Sudyaga qaraganda ko'proq odam baho bergani uchun xatolik ehtimoli kamayadi.

Shuningdek, o'n ikki nafar turli fikrdagi fuqaroning muhokamadan chiqargan xulosasi ko'pincha yakka sudya tomonidan chiqarilgan hukmdan ancha adolatli bo'ladi. Xususan, blackston prinsipiga ko'ra, ko'pchilikning vaziyatga birgalikda baho berishi yakka hukmga qaraganda nohaq hukm natijasini kamaytiradi.

Yuqoridagi afzalliklarni yoritishda, ayrim OAV va tahlillar asos sifatida tilga olinayotgan fikrlarga e'tibor qaratish lozim. Masalan, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan huquqshunoslar jamoatchilik ishtirokini kuchaytirib, sud jarayoniga "inqilobiy yangiliklar" kiritishni taklif qilganlarida, aynan yuqoridagi jihatlarni sanab o'tgan. Shuningdek, Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ham ta'kidlaganlaridek, o'ta og'ir va shuv-shuvlarga sabab bo'layotgan jinoyatchiliklarni jamoatchilik ishtirokida ko'rib chiqilishi sudning yakuniy hukmini yanada adolatliroq bo'lishini ta'minlashi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, sud tomonidan chiqarilayotgan qaror yoki hukm qonuniy bo'lishi mumkin, lekin adolatli bo'lishi uchun jamoatchilik ishtiroki ham muhimdir.

Xorij amaliyoti o'rganilganda, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda xalq vakillari hay'ati institutiga asosiy e'tibor berilgan. Masalan, Angliya va Amerika qonunchiligida jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda hakamlar hay'ati ustuvor ahamiyatga ega. Xususan, Buyuk Britaniya an'anasiga ko'ra, shafqatsiz, shov-shuvlarga sabab bo'layotgan jinoyatlar, jumladan qotillik yoki zo'ravonlik jinoyatlari xalq vakillari ishtirokida ko'riladi. Ushbu tizim Uels va Angliya hududlarida asrlar davomida yashab kelgan bo'lib, ijobiy natijalar bermoqda. Shu boisda Muhtaram Prezidentimiz o'z murojaatida "ingliz huquqida ijobiy natija bergan" ushbu institutni bosqichma-bosqich joriy etishni taklif qildi. Unga ko'ra, og'ir va jamiyatda shov-shuvga sabab bo'layotgan jinoyatlar jamoatchilik vakillari ishtirokida ko'rib chiqilishi hukmga adolat va shaffoflik keltirishga xizmat qiladi.

AQSh ham jinoyatchilikka qarshi kurashda xalq vakillari hay'ati tizimini saqlab keladi.

Masalan, AQSh Konstitutsiyasining 6-moddasi bo'yicha jinoiy ish bo'yicha aybdorlik yoki aybsizlik to'g'risidagi so'ngi hukmda xalq vakillari hay'ati majlisi bergan qaror bo'lishi kafolatlanadi. Shu bois Amerika va Angliya sud tizimlarida xalq vakillari hay'ati sud ishonchliligini oshiruvchi jamoaviy element sifatida qaraladi. Shu boisdan sud qarori oddiy fuqarolar tomonidan qabul qilinishi jamoatchilik fikrini yaqinlashtiradi, individual xatolik va adolatsizlik ehtimolini kamaytiradi, korrupsiya xavfini pasaytiradi va sudga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda milliy qonunchilikka takliflar beriladigan bo'lsa, birinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksi hamda qonunlarga tegishli ta'rif kiritilishi kerak.

Xususan, Jinoyat-protsessual kodeksiga yoki "Sudlar to'g'risida" qonunga xalq vakillari hay'ati majlisi tarkibi, vakolatlari va ovoz berish tartibi keltirilishi lozim. Shu asosda xalq vakillari hay'atiga kimlar va qanday tanlanishi, unga qaysi turdagi ishlarni ko'rishi majburiyligi belgilanishi zarur.

Ikkinchidan, *qamrov chegarasini aniqlash*. Bunda dastlabki bosqichda faqat eng og'ir jinoyatlar - qotillik, zo'ravonlik, giyohvand moddalar savdosi kabi jamoatchilikni e'tiborini tortadigan jinoyatlar uchun qo'llanishi mumkin. Keyinchalik esa sud-huquq tizimidagi islohotlardan kelib chiqqan holda qamrovni bosqichma-bosqich kengaytirish maqsadga muvofiq.

Uchunchidan, *xalq vakillari hay'ati institutini joriy etib a'zolari tayyorlash va malakasini oshirish*. Hay'atga kiritilgan fuqarolarga sud protsessi qanday kechishi, huquqiy atamalar, etika qoidolari haqida qisqa tushuntirish berilishi lozim.

To'rtinchidan, *maslahatchilarni rag'batlantirish va javobgarlik masalalarini joriy etish*.

Xalq maslahatchilari institutiga parallel ravishda, xalq vakillari hay'ati a'zolariga belgilangan vakolat va majburiyatga rioya etmaganlik uchun tegishli jazo choralari qonunchilikka joriy etish kerak. Shu bilan birga, adolatli ovoz berish uchun hay'at a'zolariga tegishli rag'batlantirish (ularning sudda qatnashuvi uchun alohida to'lov va boshqalar) tizimi yo'lga qo'yilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, xalq vakillari hay'ati institutini sud protsessiga joriy etish O'zbekiston Respublikasi sud tizimini yanada demokratik, adolatli va shaffof qilish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda xalq maslahatchilari shaklida sudlarda jamoat ishtiroki qisman ta'minlanayotgan bo'lsa-da, ularning tanlanishi va huquqiy maqomi takomillashishni talab qiladi. Xalq vakillari hay'ati tizimi joriy etilganda fuqarolarning sud jarayoniga ishtiroki kengayadi va sud qarorlariga bo'lgan ishonch ortishiga olib keladi. Ilg'or xorijiy tajriba xususan, ingliz huquqi shuni ko'rsatadiki, sud qarori xalq vakillari ishtirokida chiqarilganda u nafaqat qonuniy, balki jamiyat nuqtai nazariga ham muvofiq bo'ladi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida xalq vakillari hay'ati institutini joriy etib, puxta tashkil etish, sud-huquq sohasini takomillashtirishdagi muhim amaliy qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2023y.;
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995y.;
3. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi O'RQ-703-son Qonuni, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2021y.;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.12.2025-yildagi Oliy Majlisga murojaatnomasi.;
5. Xalq maslahatchilari mas'uliyatini kuchaytirish odil sudlovda muhim o'rin tutadi. Maqola, S.Dusmanov, Jinoyat ishlari bo'yicha Qibray tumani sudining raisi.